IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 24. Issue 01. Oktabr, 2026

5–7-SINF O‘QUVCHILARINI MANZARA KOMPOZITSIYASINI CHIZISHGA O‘RGATISHDA BADIIY-IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION METODIKASI

Xamraqulova Muqaddamxon Tojiqo‘zi qizi
Chirchiq davlat
pedagogika universiteti doktaranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.23118704

Annotatsiya

Mazkur maqolada umumta’lim maktablarining 5–7-sinf o‘quvchilarini manzara kompozitsiyasini chizishga o‘rgatish jarayonida badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan innovatsion metodik yondashuvlar yoritilgan. An’anaviy akademik tasvirlash usullarini zamonaviy raqamli-interaktiv texnologiyalar bilan integratsiyalashning pedagogik imkoniyatlari ochib berilgan. Ilg‘or xorijiy tajribalar, xususan, fenomenga asoslangan ta’lim, STEAM integratsiyasi, an’ana va innovatsiya uyg‘unligi milliy ta’lim sharoitlariga moslashtirilgan. O‘quvchilarning fazoviy tasavvuri, kompozitsion fikrlashi, estetik idroki va kreativligini rivojlantirishga qaratilgan to‘rt bosqichli metodika: nazariy asoslarni o‘zlashtirish va vizual tahlil, raqamli muhitda mantiqiy loyihalash, bevosita ijodiy faoliyat hamda baholash va diagnostika bosqichlari asoslangan. “Ranglar doirasi”, “Interaktiv palitra”, Genially, Trycolors, ArtRage, iSpring hamda sun’iy intellekt vositalarining tasviriy san’at darslaridagi didaktik imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: manzara kompozitsiyasi, badiiy-ijodiy qobiliyat, innovatsion metodika, kreativlik, fazoviy tasavvur, estetik idrok, kompozitsion fikrlash, STEAM, raqamli texnologiyalar, interaktiv ta’lim.

Аннотация

В статье рассматриваются инновационные методические подходы, направленные на развитие художественно-творческих способностей учащихся 5–7 классов общеобразовательных школ в процессе обучения пейзажной композиции. Раскрываются педагогические возможности интеграции традиционных академических методов изобразительного искусства с современными цифровыми и интерактивными технологиями. Передовой зарубежный опыт, в частности феномено-ориентированное обучение, STEAM-интеграция и сочетание традиций с инновациями, адаптирован к условиям национальной системы образования. Обоснована четырехэтапная методика, включающая освоение теоретических основ и визуальный анализ, логическое проектирование в цифровой среде, непосредственную творческую деятельность, оценивание и диагностику.

Ключевые слова: пейзажная композиция, художественно-творческие способности, инновационная методика, креативность, пространственное воображение, эстетическое восприятие, STEAM, цифровые технологии.

Abstract

The article examines innovative methodological approaches aimed at developing the artistic and creative abilities of Grade 5–7 students in the process of teaching landscape composition. The pedagogical potential of integrating traditional academic art methods with modern digital and interactive technologies is discussed. Advanced international approaches, including phenomenon-based learning, STEAM integration, and the combination of tradition and innovation, are adapted to the national educational context. A four-stage methodology is substantiated, including theoretical and visual analysis, logical design in a digital environment, direct creative activity, and assessment and diagnostics.

Keywords: landscape composition, artistic and creative abilities, innovative methodology, creativity, spatial imagination, aesthetic perception, STEAM, digital technologies.

Kirish

Bugungi globallashuv va raqamlashtirish sharoitida ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biri o‘quvchilarning tayyor bilimlarni o‘zlashtirishigagina emas, balki ularni ijodiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, muammoning bir nechta yechimlarini izlash va o‘z g‘oyalarini yangicha shaklda ifodalashga tayyorlashdan iborat. Ayniqsa, tasviriy san’at ta’limi o‘quvchining vizual tafakkuri, estetik dunyoqarashi, fazoviy tasavvuri va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun keng pedagogik imkoniyatlarga ega.

Manzara janri bu jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki o‘quvchi manzara kompozitsiyasini yaratish jarayonida tabiatni kuzatadi, fazoviy munosabatlarni tahlil qiladi, perspektiva qonuniyatlarini anglaydi, ranglarning o‘zaro ta’sirini his etadi va ko‘rgan voqeligini shaxsiy estetik munosabati orqali qayta yaratadi. Shu sababli manzara kompozitsiyasini chizishga o‘rgatish faqat texnik rasm chizish ko‘nikmalarini shakllantirish bilan cheklanmasligi, balki o‘quvchining badiiy-ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi yaxlit pedagogik jarayon sifatida tashkil etilishi zarur.

An’anaviy tasviriy san’at metodikasi o‘quvchilarga naturani kuzatish, eskiz ishlash, kompozitsiyani qurish, rang berish va tasvirni umumlashtirish kabi fundamental amaliy ko‘nikmalarni beradi. Mazkur akademik asoslar o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Biroq raqamli axborot muhitida ulg‘ayayotgan bugungi o‘quvchining axborotni qabul qilish usuli, diqqati, vizual tajribasi va texnologik ehtiyojlari o‘zgarmoqda. Shu nuqtai nazardan faqat reproduktiv, ya’ni “o‘qituvchi ko‘rsatadi — o‘quvchi qaytaradi” tamoyiliga asoslangan metodlardan foydalanish o‘quvchilarning kreativ salohiyatini to‘liq rivojlantirish imkonini bermaydi. Dissertatsiyaning 2.2-qismida ham mazkur ziddiyat innovatsion metodikani ishlab chiqish zaruratining asosiy omili sifatida qayd etilgan.

Zamonaviy tasviriy san’at ta’limida o‘quvchining faol ijodkor sifatidagi pozitsiyasini kuchaytirish, ta’lim jarayonini texnologik vositalar bilan boyitish, mustaqil izlanish, tajriba o‘tkazish va turli variantlarni sinab ko‘rish imkonini yaratish muhimdir. Bunda raqamli texnologiyalar an’anaviy tasviriy san’atning o‘rnini bosuvchi emas, balki uning imkoniyatlarini kengaytiruvchi pedagogik vosita sifatida qaraladi.

Tadqiqotning maqsadi va metodlari

Tadqiqotning maqsadi 5–7-sinf o‘quvchilarini manzara kompozitsiyasini chizishga o‘rgatish jarayonida ularning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan innovatsion metodik yondashuvlarni asoslashdan iborat.

Mazkur maqsadga erishishda pedagogik va psixologik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, ilg‘or xorijiy pedagogik tajribalarni o‘rganish, kuzatuv, ijodiy-amaliy topshiriqlarni tahlil qilish, interaktiv raqamli vositalarning didaktik imkoniyatlarini o‘rganish kabi metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning metodologik asosida badiiy-ijodiy qobiliyat shaxsning maqsadli faoliyati davomida rivojlanadigan dinamik sifat ekanligi haqidagi yondashuv yotadi. J.P.Guilfordning divergent fikrlash nazariyasi ijodkorlikni bitta masalaga turli yechimlarni taklif eta olish bilan bog‘lasa, H.Gardnerning ko‘p qirrali intellekt nazariyasi tasviriy san’atda fazoviy intellektning ahamiyatini asoslaydi [5; 6]. E.Eysner san’at ta’limining bilish faoliyatidagi o‘ziga xos imkoniyatlariga urg‘u beradi [4]. J.Dyui esa san’atni faol tajriba va amaliy faoliyat bilan bog‘liq holda ko‘radi [3]. Ushbu nazariy qarashlar tasviriy san’at darslarini reproduktiv faoliyatdan ijodiy-tadqiqotchilik faoliyatiga o‘tkazish uchun ilmiy zamin yaratadi. Dissertatsiyada ham ushbu olimlarning qarashlari san’at ta’limining zamonaviy metodologik asoslari sifatida tahlil qilingan. Ilg‘or xorijiy tajribalarni milliy ta’lim sharoitlariga moslashtirish

Innovatsion metodikani ishlab chiqishda ilg‘or xorijiy tajribalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirish emas, balki ularni milliy ta’limning mazmuni, qadriyatlari va tabiiy sharoitlariga moslashtirish muhimdir.

Finlyandiya ta’lim tizimida qo‘llaniladigan phenomenon-based learning, ya’ni fenomenga asoslangan ta’lim yondashuvida o‘quvchi muayyan hodisani bir nechta fan nuqtai nazaridan yaxlit o‘rganadi. Mazkur yondashuvni tasviriy san’at darslariga tatbiq etishda “Mahalla va tabiat”, “Mening hududim manzarasi”, “Tabiat va inson” kabi integrativ plener loyihalarini tashkil etish mumkin. O‘quvchi o‘z yashash hududi manzarasini kuzatish va tasvirlash jarayonida tasviriy san’at bilimlari bilan bir qatorda geografik, ekologik va tabiiy-ilmiy bilimlardan ham foydalanadi. Shu tariqa badiiy faoliyat ekologik madaniyat va fuqarolik pozitsiyasi bilan uyg‘unlashadi.

Yaponiya tajribasida an’anaviy naturadan tasvirlash va erkin ijodiy xayolotning o‘zaro uyg‘unligi alohida e’tiborga loyiq. Mazkur yondashuvda o‘quvchi klassik tasviriy ko‘nikmalarni egallashi bilan birga, raqamli vositalarda ham ijod qiladi. Bu esa texnologiyani an’anani rad etuvchi omil sifatida emas, balki uning imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita sifatida qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi. Yaponiyada san’at ta’limining an’anaviy va zamonaviy elementlarini birlashtirish tajribasi ilmiy adabiyotlarda ham qayd etilgan.

STEAM yondashuvi tasviriy san’atni boshqa fanlar bilan integratsiyalash imkonini beradi. Manzara kompozitsiyasini chizishda chiziqli perspektiva matematika va geometriya, yorug‘lik va havo perspektivasi fizika, ranglarning o‘zaro aralashishi va optik xususiyatlari tabiiy fanlar, rangning emotsional ta’siri esa psixologiya bilan bog‘lanadi. Bunday integratsiya tasviriy san’atning mazmunini kengaytiradi va o‘quvchilarda fanlararo bog‘lanishlarni anglashga yordam beradi. Dissertatsiyada ilg‘or xorijiy tajribalarni milliy sharoitga moslashtirishning aynan shu uch yo‘nalishi asoslangan. Manzara kompozitsiyasini o‘qitishning to‘rt bosqichli innovatsion metodikasi

Tadqiqotda an’anaviy besh bosqichli akademik jarayon — kuzatish, eskiz, qurish, ranglash va umumlashtirishning ilmiy-amaliy ahamiyati saqlangan holda, u zamonaviy ta’lim vositalari bilan boyitildi va “idrok – loyihalash – ijod – diagnostika” mantiqiga asoslangan to‘rt bosqichli innovatsion metodikaga aylantirildi.

Birinchi bosqich: nazariy asoslarni o‘zlashtirish va vizual tahlil

Mazkur bosqichning asosiy maqsadi o‘quvchilarni manzara tasvirining nazariy qonuniyatlari bilan vizual va interaktiv shaklda tanishtirishdan iborat. Unda “Ranglar doirasi”, “Interaktiv palitra”, “Manzara ishlash metodikasi”, “Manzarachi rassomlar asarlari” va “Mahorat darslari” kabi metodik resurslardan foydalaniladi.

“Ranglar doirasi” vositasi o‘quvchining asosiy, hosila, issiq va sovuq ranglar haqidagi tasavvurini shakllantirishga xizmat qiladi. “Interaktiv palitra” esa ranglarni faqat nazariy tushuncha sifatida emas, balki ularning o‘zaro uyg‘unligi, emotsional ta’siri va manzara tasviridagi amaliy vazifasini tushunishga yordam beradi. Mazkur vosita o‘quvchida rangni ko‘rish, farqlash va kompozitsiyada ongli qo‘llash ko‘nikmasini rivojlantiradi.

“Manzara ishlash metodikasi”da oddiy tabiat manzarasining formatda joylashtirilishidan boshlab kompozitsiyani qurish, perspektiv munosabatlarni belgilash va rang yechimini topishgacha bo‘lgan jarayon bosqichma-bosqich vizual ko‘rinishda namoyish etiladi. Bunday vizuallashtirish nazariy tushunchani amaliy harakat bilan bog‘laydi.

Manzarachi rassomlar asarlarining tahlili o‘quvchilarning estetik idroki va vizual xotirasini boyitadi. O‘quvchilar professional rassomlarning kompozitsion yechimi, rang tanlovi, fazoni ifodalash va kayfiyat yaratish usullarini kuzatadilar. Bu jarayon tayyor namunani mexanik ko‘chirish emas, balki professional san’at tajribasini o‘rganish vositasi sifatida tashkil etiladi.

Shuningdek, professional rassomlarning “Mahorat darslari” o‘quvchilar uchun mustaqil o‘rganish imkonini yaratadi. O‘quvchi tasviriy materiallar bilan ishlash texnikasini takroran ko‘rishi, ish jarayonini tahlil qilishi va o‘z sur’atida o‘zlashtirishi mumkin.

Ikkinchi bosqich: raqamli muhitda mantiqiy loyihalash va interaktiv mashqlar

Ikkinchi bosqichda o‘quvchi bevosita yakuniy asarni boshlashdan oldin kompozitsion g‘oyasini virtual muhitda sinab ko‘radi. Bu bosqich ijodiy faoliyatga tayyorlovchi, mustahkamlovchi va loyihalovchi xarakterga ega.

Genially platformasida tashkil etilgan “Escape Room”, “Manzarali pazl” kabi topshiriqlar o‘quvchining kuzatuvchanligi, mantiqiy va kompozitsion fikrlashini faollashtiradi. O‘yinlashtirish elementlari darsdagi psixologik zo‘riqishni kamaytirib, topshiriqni bajarishga qiziqishni oshiradi.

Trycolors raqamli vositasi ranglarni turli nisbatlarda aralashtirish natijasini oldindan ko‘rishga imkon beradi. An’anaviy bo‘yoqlar bilan rang aralashtirishda noto‘g‘ri variant vaqt va material yo‘qotilishiga olib kelishi mumkin. Virtual muhitda esa o‘quvchi bir nechta rang yechimlarini tezda sinab ko‘radi, ularni taqqoslaydi va maqbul variantni tanlaydi.

Sun’iy intellekt vositalari esa, dissertatsiyada ko‘zda tutilganidek, tayyor rasmni o‘quvchi o‘rniga yaratish vositasi emas, balki ijodiy g‘oya izlash, variantlarni taqqoslash va prompt tuzish orqali fikrni aniqlashtirishga yordam beradigan yordamchi instrument sifatida qo‘llanadi. O‘quvchining asosiy vazifasi tayyor mahsulotni qabul qilish emas, balki uni tahlil qilish, qayta ishlash va o‘zining individual badiiy qarashiga muvofiq yangi kompozitsiya yaratishdan iborat.

Mazkur bosqichning muhim pedagogik samarasi — o‘quvchilarda kuzatiladigan “oq qog‘oz qo‘rquvi”ni kamaytirishdir. O‘quvchi yakuniy ishni boshlashdan avval bir nechta variantni virtual muhitda sinab ko‘rishi sababli xato qilishdan qo‘rqmaydi, yangi g‘oya taklif qilishga moyilligi ortadi. Dissertatsiyada ham ikkinchi bosqichning vazifasi aynan variantlarni xavfsiz virtual muhitda modellashtirish va ijodiy psixologik to‘siqni kamaytirish sifatida belgilangan.

Uchinchi bosqich: bevosita ijodiy jarayon va asar yaratish

Uchinchi bosqich o‘quvchining oldingi ikki bosqichda egallagan bilim va loyihalarini mustaqil badiiy mahsulotga aylantirish bosqichidir. O‘quvchilar ArtRage dasturi bilan bir qatorda akvarel, guash va qalamtasvir kabi an’anaviy materiallardan foydalanadilar.

Mazkur bosqichda raqamli va an’anaviy texnologiyalar qarama-qarshi qo‘yilmaydi. Aksincha, ular bir-birini to‘ldiradi. Masalan, o‘quvchi kompozitsiyaning bir nechta eskizini raqamli muhitda ishlab chiqishi, rang variantlarini tekshirishi, so‘ng tanlangan g‘oyani qog‘ozda akvarel yoki guash vositasida amalga oshirishi mumkin.

Bu yondashuv o‘quvchining raqamli savodxonligi bilan bir qatorda qo‘l motorikasi, bo‘yoq va qog‘ozning fizik xususiyatlarini his qilish, mo‘yqalam bilan ishlash va ranglarning tabiiy aralashuvini kuzatish kabi akademik badiiy ko‘nikmalarini ham saqlab qoladi.

Eng muhimi, o‘quvchining yakuniy kompozitsiyasi tayyor namunaning nusxasi bo‘lmasdan, uning shaxsiy hissiyoti, tabiatga munosabati va badiiy qarashini ifodalashi lozim. Shu orqali reproduktiv faoliyat ijodiy faoliyatga aylanadi.

To‘rtinchi bosqich: baholash, nazorat va diagnostika

To‘rtinchi bosqichning vazifasi o‘quvchining faqat tayyor rasmini baholash emas, balki butun ijodiy jarayondagi rivojlanish dinamikasini aniqlashdan iborat.

iSpring dasturida ishlab chiqilgan drag-and-drop, hotspot, moslikni aniqlash singari nostandart testlar orqali rangshunoslik, perspektiva, kompozitsiya va tasviriy savodxonlikka oid bilimlarni nazorat qilish mumkin. LMS orqali esa o‘quvchilarning topshiriqlarni bajarish holati va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari kuzatiladi.

Baholash natijalari keyingi ta’lim faoliyatini korreksiya qilish uchun xizmat qiladi. Agar o‘quvchining fazoviy tasavvuri yetarli rivojlanmagan bo‘lsa, perspektivaga oid qo‘shimcha topshiriqlar, rangni his etishda qiyinchilik mavjud bo‘lsa, rang aralashtirishga oid interaktiv mashqlar beriladi. Demak, diagnostika yakuniy nazoratgina emas, balki ta’lim jarayonini boshqaruvchi qayta aloqa mexanizmiga aylanadi.

Metodikaning sinflar kesimidagi differensiatsiyasi

Innovatsion metodikaning muhim xususiyati ta’lim mazmunining 5–7-sinflar kesimida spiralsimon chuqurlashib borishidir.

5-sinfda asosiy e’tibor propedevtik mazmunga qaratiladi. O‘quvchi predmetlarning qog‘oz tekisligida joylashuvi, oddiy kompozitsion markaz, lokal rang, tabiatdagi asosiy rang munosabatlari va kuzatuvchanlikni o‘rganadi. Bu bosqichda “Ranglar doirasi” va Trycolors singari vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

6-sinfda konstruktiv-fazoviy tafakkurni rivojlantirish ustuvor bo‘ladi. O‘quvchilar ufq chizig‘i, chiziqli perspektiva, oldingi, o‘rta va orqa plan, predmetlarning fazodagi nisbatlari bilan ishlaydilar. Genially asosidagi mantiqiy va kompozitsion o‘yinlar bu bosqichda samarali hisoblanadi.

7-sinfda esa havo perspektivasi, kolorit, kayfiyat va badiiy obraz yaratishga e’tibor kuchayadi. O‘quvchi faqat tabiatning tashqi ko‘rinishini tasvirlamaydi, balki uning ma’lum holati va kayfiyatini badiiy vositalar orqali ifodalashga harakat qiladi. Sun’iy intellekt vositalari va ArtRage bilan ishlash o‘quvchining bir nechta ijodiy g‘oyani ishlab chiqishi va yakuniy kompozitsiyani mustaqil hal etishi uchun qo‘llaniladi. Dissertatsiyada ham aynan 5-sinf — propedevtika, 6-sinf — konstruktiv-fazoviy tasvir, 7-sinf — kolorit va badiiy obraz mantiqi belgilangan.

Differensial yondashuv va o‘quvchining individual ijodiy imkoniyatlari

Bir sinfdagi barcha o‘quvchilarning tasviriy mahorati, qiziqishi va ijodiy tajribasi bir xil bo‘lmaydi. Shu bois innovatsion metodikada differensial yondashuvdan foydalanish zarur.

Badiiy tayyorgarligi yuqori bo‘lgan o‘quvchilarga murakkab, ko‘p planli, mustaqil kompozitsion va rang yechimini talab etuvchi topshiriqlar taklif etiladi. Bunday o‘quvchilarga bir mavzuning bir nechta kompozitsion variantini yaratish, yorug‘lik va atmosfera holatini o‘zgartirib tasvirlash yoki bir xil manzarani turli emotsional kayfiyatda ishlash topshirilishi mumkin.

Tasviriy faoliyatda qiynalayotgan o‘quvchilar uchun esa bosqichma-bosqich ko‘rsatma, sodda kompozitsion sxemalar va vizual namunalar taqdim etiladi. Bu yondashuv o‘quvchilar o‘rtasidagi individual farqlarni hisobga olish va har bir bolaga muvaffaqiyat vaziyatini yaratish imkonini beradi.

Innovatsion metodikaning badiiy-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishdagi imkoniyatlari

Taklif etilayotgan metodikaning muhim xususiyati o‘quvchining badiiy-ijodiy qobiliyatlarini kompleks ravishda rivojlantirishga yo‘naltirilganidadir.

Birinchidan, fazoviy tasavvur chiziqli va havo perspektivasi, planlar, masofa va hajmni idrok etish orqali shakllanadi. Raqamli modellashtirish o‘quvchiga fazoviy o‘zgarishlarni tezda kuzatish imkonini beradi.

Ikkinchidan, kompozitsion fikrlash obyektlarni tasodifiy joylashtirishdan voz kechib, kompozitsion markaz, muvozanat, ritm va formatning umumiy yechimini ongli rejalashtirish orqali rivojlanadi.

Uchinchidan, estetik idrok tabiatni kuzatish, rassomlar asarlarini tahlil qilish, rang, yorug‘lik va atmosfera holatlarini qiyoslash orqali boyiydi.

To‘rtinchidan, kreativlik bir mavzu bo‘yicha turli variantlar ishlab chiqish, raqamli muhitda tajriba o‘tkazish, divergent topshiriqlarni bajarish va yakuniy qarorni mustaqil tanlash orqali rivojlanadi.

Shuningdek, mazkur metodika o‘quvchida raqamli savodxonlik, mantiqiy fikrlash, hissiy sezgirlik, ekologik mas’uliyat va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini ham rivojlantirish imkonini beradi. Dissertatsiyada innovatsion metodikalar tizimi aynan mana shu XXI asr ko‘nikmalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qilishi asoslangan.

Muhokama

An’anaviy tasviriy san’at ta’limi o‘quvchilarga fundamental badiiy savodxonlik beradi. Qalam, mo‘yqalam, bo‘yoq, rang va fakturani his qilish kabi ko‘nikmalarni faqat raqamli vosita bilan to‘liq almashtirish mumkin emas. Shu sababli innovatsion metodikaning asosiy tamoyili

“an’anaviy yoki raqamli” shaklidagi qarama-qarshilik emas, balki “an’anaviy va raqamli” integratsiyadir.

Raqamli texnologiyaning asosiy afzalligi o‘quvchiga xato qilishdan qo‘rqmasdan tajriba o‘tkazish imkonini yaratishidir. U bir necha kompozitsion variantni tezkor sinaydi, ranglarni qiyoslaydi, g‘oyasini qayta ko‘rib chiqadi. Shundan so‘ng an’anaviy materialdagi faoliyat ongliroq tashkil etiladi.

Biroq raqamli vosita pedagogik maqsaddan ustun bo‘lmasligi kerak. Genially yoki ArtRage dasturining o‘zi o‘quvchining ijodiy qobiliyatini rivojlantirmaydi. U faqat to‘g‘ri metodik tizimda, muayyan badiiy-pedagogik vazifani bajarish uchun qo‘llangandagina samarali vositaga aylanadi.

Xuddi shuningdek, sun’iy intellektdan foydalanish ham o‘quvchining mustaqil ijodini cheklamasligi lozim. Uning vazifasi o‘quvchi o‘rniga yakuniy asarni yaratish emas, balki variantlarni ko‘rish, g‘oyani aniqlashtirish va tanqidiy tahlil qilishga yordam berishdan iborat.

Shunday qilib, innovatsion metodikaning samaradorligi texnologiyalar soni bilan emas, balki ularning o‘quvchining fazoviy tasavvuri, kompozitsion tafakkuri, estetik idroki va kreativligini rivojlantirishga qanchalik maqsadli xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Xulosa

Olib borilgan nazariy-metodik tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

Birinchidan, 5–7-sinf o‘quvchilarini manzara kompozitsiyasini chizishga o‘rgatishda faqat an’anaviy reproduktiv metodlardan foydalanish zamonaviy o‘quvchilarning badiiy-ijodiy imkoniyatlarini to‘liq namoyon etishga yetarli emas. Shu sababli akademik tasvirlash asoslarini saqlagan holda innovatsion, raqamli-interaktiv metodlar bilan uyg‘unlashtirish zarur.

Ikkinchidan, fenomenga asoslangan o‘qitish, STEAM integratsiyasi, an’ana va innovatsiyani uyg‘unlashtirish kabi ilg‘or xorijiy tajribalarni O‘zbekistonning milliy ta’lim mazmuni va tabiiy-madaniy sharoitlariga moslashtirish manzara kompozitsiyasini o‘qitish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Uchinchidan, “nazariy asoslarni o‘zlashtirish va vizual tahlil – raqamli muhitda mantiqiy loyihalash – bevosita ijodiy faoliyat – baholash va diagnostika”dan iborat to‘rt bosqichli metodika o‘quvchini passiv kuzatuvchidan faol ijodkor darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, “Ranglar doirasi”, “Interaktiv palitra”, Genially, Trycolors, ArtRage, iSpring va sun’iy intellekt vositalarining maqsadli qo‘llanilishi o‘quvchining rangni his etishi, fazoviy fikrlashi, kompozitsion loyihalashi, mustaqil ijod qilishi va o‘z faoliyatini baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Beshinchidan, metodikaning 5-sinfda propedevtik, 6-sinfda konstruktiv-fazoviy, 7-sinfda kolorit va badiiy obraz yaratishga yo‘naltirilgan spiralsimon tuzilishi o‘quvchilarning yosh xususiyatlari va murakkablashib boruvchi badiiy faoliyat mazmuniga muvofiqdir.

Demak, manzara kompozitsiyasini o‘qitishda an’anaviy akademik asoslar va raqamli-interaktiv texnologiyalarning integratsiyasi o‘quvchilarning fazoviy tasavvur, kompozitsion fikrlash, estetik idrok va kreativlik kabi badiiy-ijodiy qobiliyatlarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiluvchi istiqbolli metodik yo‘nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi **“2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”**gi PF–60-son Farmoni.
2. Abdirasilov S.F. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
3. Dewey J. Art as Experience. – New York: Perigee Books, 1934. – 371 p.
4. Eisner E.W. What the Arts Taught Me about Education // Art Education. – 1991. – Vol. 44. – №5. – P. 10–19.
5. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. – New York: Basic Books, 1983. – 440 p.
6. Guilford J.P. The Nature of Human Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1967. – 538 p.
7. Foster M.S. Art Education in Japan: A Textbook-based Curriculum // School Arts. – 1990. – Vol. 89. – №9. – P. 12–15.
8. Freedman K. Teaching Visual Culture: Curriculum, Aesthetics, and the Social Life of Art. – 2nd ed. – New York: Teachers College Press, 2025. – 240 p.
9. Efland A. Art and Cognition: Integrating the Visual Arts in the Curriculum. – New York: Teachers College Press, 2002.
10. Boymetov B.B. Qalamtasvir. – Toshkent: Musiqa, 2006.
11. Hamidov A. Tasviriy san’atda kompozitsiya qonuniyatlari va uning ahamiyati // Science and Education. – 2024.
12. Nabiyev B.A., Yoqubova M.B. Rangtasvirda manzara ishlash jarayonida qisqa muddatli etyudlardan foydalanishning pedagogik samaradorligi // Science and Education. – Namangan, 2024.